Jahon amaliyotida moliya bozorini boshqarish jarayonlarida moliyalashtirish darajasidagi tebranishlarning oldini olish, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish doirasida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro talablarga muvofiq tashkil etish bo'yicha turli metodologik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Globalizatsiya sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy instrumentlarni tan olish, ularning hisobini to'g'ri tashkil etish va auditorlik tekshiruvlarini samarali o'tkazish masalalari muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlarini nufuzli xalqaro fond birjalari talablari asosida joylashtirish orqali biznesni rivojlantirish va uni samarali boshqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish, xorijiy investorlar uchun zarur axborot muhitini yaratish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar asosida² tayyorlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan sotib olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish³ kabi vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur yo'nalish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–01–28-dagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni⁴, 2019–12–25-dagi 598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun⁵, 2015–06–03-dagi 387-son "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun⁶, 2014–05–06-dagi 370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun⁷, 2018–08–01-dagi PF–5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon⁸, 2015–04–24-dagi PF–4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon⁹, 2012–03–19-dagi PQ–1727-son "Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror¹⁰, 2020–02–24-dagi PQ–4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror¹¹ hamda 2007–04–04-dagi PQ–615-son "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi Qarorlarda¹² belgilangan vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda moliyaviy instrumentlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va ularning auditini tashkil etish masalalari iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va ularning auditini samarali tashkil etish masalalari turli jihatlarida yoritilgan.

Xususan, Isroilov B.I. tomonidan 1999-yilda¹³ aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatining konseptual asoslari, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi debitorlik qarzlari va ularni qisqartirish yo'llari, aksiyalarning fond birjalari hamda depozitariylardagi hisobining xususiyatlari, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va omilli tahlil asosida ichki imkoniyatlarni aniqlash masalalari ilmiy asosda yoritib

- 1 www.nyse.com, www.nasdaq.com. Top-10 jahon birjalari. NYSE va NASDAQ xalqaro birjalari statistik ma'lumotlari bazasi asosida.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–02–24-dagi PQ–4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020–02–25-y., 07/20/4611/0209-son. <https://lex.uz/docs/-4746047>.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–01–28-dagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022–04–21-y., 06/22/113/0330-son.
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
- 5 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>.
- 6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.08.2023 yildagi 387-son <https://lex.uz/docs/-6572293>.
- 7 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son <https://lex.uz/docs/-2382409>.
- 8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2018 yildagi PF-5495-son <https://lex.uz/docs/-3845273>.
- 9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.04.2015 yildagi PF-4720-son <https://lex.uz/docs/-2635197>.
- 10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 19-martdagi PQ-1727-son qarori <https://lex.uz/docs/-2013889>.
- 11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son <https://lex.uz/docs/-4746047>.
- 12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 04.04.2007 yildagi PQ-615-son <https://lex.uz/docs/-1166091?ONDATE=04.04.2007>.
- 13 Isroilov B.I. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish (savdo aksiyadorlik jamiyatlari misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: BMA, 1999. 23 b.



berilgan. Muallifning 2006-yilda¹⁴ chop etilgan ishlarida esa aksiyadorlik jamiyatlarida yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarni baholash, ularni hisobvaraqlar rejasida aks ettirish, majburiyatlar ustidan nazoratni tashkil etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, obligatsiyalar hisobi hamda majburiyatlarni tahlil qilish kabi masalalar keng yoritilgan.

Investitsiya faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha ham ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, Piter Rouz banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati vositalarini o'rganib, ularni ikki guruhga, ya'ni pul bozori instrumentlari va kapital bozori instrumentlariga ajratadi hamda investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida veksellar va obligatsiyalarni jalb etishni taklif etadi. G.N. Beloglazova to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va portfelli investitsiyalarni tahlil qilib, qimmatli qog'ozlar orqali to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish va investitsiya portfelini shakllantirishni tavsiya etadi. O.I. Lavrushin tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish maqsadida investitsiya banklarini tashkil etishda ikki yo'nalishni, ya'ni qimmatli qog'ozlarni bevosita joylashtirish va sotish hamda uzoq muddatli kreditlash orqali investitsiya faoliyatini tashkil etishni taklif etadi. E.I. Nosirov xo'jalik subyektlarining investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etib, investorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini kuchaytirish muhimligini asoslab beradi. F.A. Yuldashev esa tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur masala bo'yicha turli qarashlar mavjud bo'lsa-da, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va auditini tashkil etishning zamonaviy talablariga mos ilmiy yechimlarni ishlab chiqish zarurati ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, shuningdek, iqtisodiy-matematik qiyoslash va guruhlash kabi iqtisodiy tahlil hamda statistik usullardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda dinamik qatorlar tahlili, taqqoslama tahlil va korrelyatsion yondashuvlar qo'llanildi. Qimmatli qog'ozlar bozori ko'rsatkichlarini baholashda rasmiy statistika manbalari, fond birjalari hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi.

Shuningdek, moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy manbalar o'rganilib, ular asosida asoslantirilgan xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida muammolar tahlil qilinib, amaliy takliflar ishlab chiqildi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va ularni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi hamda davlat obligatsiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Mazkur jarayonlarning strategik ahamiyati davlat rahbari tomonidan ham ta'kidlanib, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni bozor orqali joylashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etilgan. Xususan, fond bozoridagi aksiyalarning umumiy qiymati yalpi ichki mahsulotga nisbatan hali yetarli darajada emasligi ko'rsatilgan hamda xalqaro tajribada bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan fond bozorini rivojlantirish strategiyasi doirasida erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10–15 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan¹⁵. Mavjud holatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati qariyb 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda, bu esa bozor institutlarining izchil rivojlanishi uchun muhim tashkiliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat obligatsiyalarining muomalaga chiqarilishi va bozor infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi kelgusida fond bozorining institutsional salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasida fond bozori hajmining 2018–2022-yillar davomidagi dinamikasi tahlil qilindi. Mazkur davrda bitimlar soni 13 750 tadan 80 723 tagacha oshgan bo'lib, bu bozor faolligining izchil ortib borayotganidan dalolat beradi. Bitimlar hajmi ham 2018-yildagi 687,30

14 Maxmudov S.Q. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish (ip-yigiruv korxonalari misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: BMA, 2006. 22 b.


15 Maxmudov S.Q. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish (ip-yigiruv korxonalari misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: BMA, 2006. 22 b.

mlrd soʻmdan 2022-yilda 4 816,21 mlrd soʻmgacha yetgan. Shu bilan birga, emitentlar soni boʻyicha maʼlum tebranishlar kuzatilgan boʻlsa-da, umumiy tendensiya fond bozorining kengayib borayotganini koʻrsatadi. Ushbu koʻrsatkichlar qimmatli qogʻozlar bozorining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va investitsiya jarayonlarida uning ahamiyatini oshirish uchun mustahkam asos yaratayotganini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval. Oʻzbekiston Respublikasida fond bozori hajmining 2018–2022-yillardagi tahlili¹⁶

№	Yillar	Bitimlar soni	Bitimlar hajmi, mlrd soʻm	Inflyatsiya, %	Emitentlar soni
1	2018	13 750	687,30	14,3	117
2	2019	32 816	438,82	15,2	112
3	2020	36 062	578,15	11,1	103
4	2021	71 489	1 260,51	10,0	108
5	2022	80 723	4 816,21	12,3	114
	Jami (5 yil)	234 840	7 780,99	—	—

1-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, Oʻzbekiston Respublikasida fond bozori 2018–2022-yillar davomida izchil va barqaror surʼatlarda rivojlangan. Xususan, bitimlar hajmi 2018-yilda 687,3 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlib, 2019-yilda ayrim qisqarish kuzatilgan, 2020-yilda esa koʻrsatkich 139,33 mlrd soʻmga oshgan. Keyingi davrda bozor faolligi sezilarli darajada kuchayib, 2021–2022-yillar oraligʻida bitimlar hajmi 3,82 baravar yoki 3 555,7 mlrd soʻmga koʻpaygan. Mazkur dinamik oʻsish fond bozorining investitsiya jarayonlaridagi rolini mustahkamlab borayotganini yaqqol namoyon etadi (1-rasm).



1-rasm. Oʻzbekistonda fond bozori hajmining tahlil grafiği.

Emitentlar sonidagi oʻzgarishlar bilan bir qatorda fond bozori hajmining dinamikasi ham turli omillar taʼsirida shakllanayotganini koʻrish mumkin. Mazkur sharoitda qimmatli qogʻozlar bozorida asosiy vazifa daromadlilik darajasini aniq hisoblash hamda ushbu jarayon uchun zarur boʻlgan axborot bilan ishonchli taʼminlashdan iboratdir (2-rasm).

2-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati va rivojlanishi dinamikasining tahlil grafiği.

Demak, mazkur sohani tahlil qiladigan boʻlsak, bugungi kunda qimmatli qogʻozlar bozori qariyb 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinayotganini koʻrish mumkin. Shu bilan birga, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston fond bozori barqaror oʻsish surʼatlarini namoyon etib, qimmatli qogʻozlarga mablagʻlarni samarali investitsiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda va mamlakat moliya tizimining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Respublikada qimmatli qogʻozlar bilan birja operatsiyalari korxonalar innovatsion rivojlanishi uchun mablagʻ jalb etishning tobora keng tarqalayotgan shakliga aylanmoqda. Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlari soni va ularning ustav kapitali hajmidagi oʻzgarishlar dinamikasini taqqoslash mumkin. 2-rasm maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, hozirgi bosqichda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etish va unga qoʻyiladigan

16 Mirziyoyev Sh.M. Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bagʻishlangan yigʻilishdagi nutqi. 2019–10–07. // <https://www.norma.uz/>.



talablarning yangilanishi natijasida ularning soni ma'lum darajada qisqarib bormoqda. Shu bilan birga, 2022–yilda aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy bozor kapitallashuvi 94,38 trln so'mni tashkil etgan.

Biroq ularning ustav kapitali hajmi izchil oshib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, 2021–yilda ustav kapitali 56,20 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020–yilda ushbu ko'rsatkich 54,79 trln so'mga teng bo'lgan. Bu holat aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy salohiyati mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval. Viloyatlarning 2023–yilga fond bozori hajmi tahlili

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	4	8 601	41 814 582	16 769 840 129,57
Buxoro viloyati	9	648	9 689 323	16 051 218 885,17
Toshkent shahri	47	34 984	36 066 662 551	2 658 061 671 456,47
Jizzax viloyati	1	301	34 658	126 710 383,05
Qashqadaryo viloyati	8	169	512 833	12 513 676 356,32
Navoiy viloyati	3	6 822	4 359 403	14 602 655 278,41
Namangan viloyati	4	1 245	135 944	4 037 097 570,22
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5	83	3 194 490	39 293 691 648,92
Samarqand viloyati	2	305	1 357 135	14 167 059 932,03
Sirdaryo viloyati	2	4	150 663	326 102 481,09
Toshkent viloyati	16	18 479	11 010 930	1 962 863 604 773,77
Farg'ona viloyati	10	9 062	10 429 576	60 999 925 563,36
Xorazm viloyati	3	20	5 408 094	16 394 164 342,02
Jami	114	80 723	36 154 760 182	4 816 207 418 800,40

«Toshkent» RFB rasmiy birja listingiga 2023–yilda 21 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari kiritilgan bo'lib, ular tarkibiga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, agrosanoat kompleksi, energetika, metallurgiya hamda iqtisodiyotning boshqa sanoat tarmoqlariga mansub korxonalar kiradi. 2023-yilning 31-may holatiga ko'ra, 106 ta emitentning 129,93 mlrd so'mlik aksiyalari muomalada bo'lib, ularning umumiy bozor kapitallashuvi shakllangan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashish, xususan, qimmatli qog'ozlar hisobini tashkil etishning tashkiliy masalalarini hal qilish hamda audit tekshiruvlarini ushbu standartlar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining turli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni kengaytirishi va jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlarni xorijiy mezonlar bilan taqqoslash hamda auditning uslubiy tamoyillarini jahon amaliyotida qabul qilingan standartlar talablariga muvofiqlashtirish zarur.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiyalar muhim o'rin tutadi va ularni jalb etishning turli mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Kapital qo'yilmalar, asosan, asosiy vositalarga yo'naltirilsa, investitsiyalar tarkibiga aylanma mablag'lar va qimmatli qog'ozlar ham kiradi. Investitsiyalar ikki asosiy turga bo'linadi: birinchisi, mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash, ya'ni ularni korxona faoliyatiga kapital sifatida kiritish; ikkinchisi esa mablag'larni korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltirish bo'lib, bu portfelli investitsiyalar hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish dolzarb vazifa bo'lib, uning samarali yo'llaridan biri qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni bozor orqali joylashtirish hisoblanadi.


Aktivlarni boshqarishda asosiy vazifa risklarni boshqarish va nazorat qilish usullari orqali qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining strategik maqsadlariga erishilishini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu yondashuv tashqi muhit hamda aktivlar tuzilmasining xususiyatlariga qarab tanlanadi. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish uchun bozor ishtirokchilarining mikro va makro darajadagi o'zgarishlarga, shuningdek, mamlakat va jahon moliya tizimidagi makroiqtisodiy vaziyat dinamikasiga tezkor moslasha olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Hozirgi sharoitda qimmatli qog'ozlar hisobi va auditing huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar, korxonalar va banklar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda qimmatli qog'ozlar bozorining izchil rivojlanishi sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish va audit tekshiruvlarini o'tkazishda xalqaro audit standartlari talablariga muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishning roli ortib borayotgani ushbu yo'nalishda kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining kengayishi, transchegaraviy aloqalarning kuchayishi hamda ko'p mamlakatlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar sonining ortishi iqtisodiy va moliyaviy axborotlarni yagona yondashuv asosida shakllantirish va foydalanuvchilar uchun qulay shaklda taqdim etish zaruratini kuchaytirmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan muomalaga chiqarilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobni yanada aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buxgalteriya hisobining 21-son "Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi" milliy standartiga ko'ra qimmatli qog'ozlar, asosan, quyidagi schyotlarda hisobga olinadi: 0610 — "Qimmatli qog'ozlar", 0620 — "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar", 0630 — "Qarama xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar", 0640 — "Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga investitsiyalar", 0690 — "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar". Shu bilan birga, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunda depozit sertifikatlar, korporativ obligatsiyalar va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar kabi turlar ham nazarda tutilgan. Mazkur instrumentlarni hisobda aniq va shaffof aks ettirish maqsadida 0610 schyot doirasida qo'shimcha subschyotlarni ochish taklif etiladi: 0611 — "Depozit sertifikatlar", 0612 — "Korporativ obligatsiyalar", 0613 — "Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar". Ushbu subschyotlar bo'yicha qimmatli qog'ozlarni turlari va emitentlar kesimida analitik hisobni yuritish ularning harakatini yanada aniq nazorat qilish va axborotning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra muomalada bo'lish huquqiga ega qimmatli qog'ozlar. [7]

Taklif etilayotgan schyotlarning boshqa hisobvaraqlar bilan o'zaro bog'liqligini quyidagicha izohlash mumkin. Qimmatli qog'ozlar auditini amalga oshirishda, avvalo, ichki audit tomonidan batafsil auditorlik nazorati yo'lga qo'yiladi. Hozirgi sharoitda ichki auditorlar faoliyati ko'pincha faqat korxonaning tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobotlarini tekshirish doirasi bilan cheklanib qolmay, balki korxonaning iqtisodiy siyosati va boshqaruv masalalarida ham faol ishtirok etishni qamrab oladi. Ichki auditorlar yuqori malakali mutaxassislar bo'lib, o'z vakolatlari doirasida keng mas'uliyatga ega bo'ladilar. Ularning faoliyati, jumladan, operatsion audit



doirasida boshqaruv masalalari bo'yicha turli tarkibiy bo'linmalarga maslahatlar berish, qimmatli qog'ozlarni sotib olishda ularning ishonchligini baholashda ichki audit xulosalariga tayanish, marketing faoliyatini, korxona qimmatli qog'ozlarining to'lovga qobiliyatligini hamda tashkiliy tuzilmani baholash kabi vazifalarni qamrab oladi. Shu bilan birga, muvofiqlik auditi doirasida korxona bo'linmalari faoliyati, uning ma'muriyati hamda zarur hollarda yuqori organlar tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiqligi tekshiriladi, tuzilgan shartnomalar yuridik talablar nuqtayi nazaridan baholanadi va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni kamaytirish choralari ko'riladi. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar hisobini va auditini to'g'ri tashkil etish dividendlarni o'z vaqtida olish imkoniyatini kengaytiradi hamda ular bo'yicha hisobni ishonchli va shaffof yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-01-28-dagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.08.2023 yildagi 387-son <https://lex.uz/docs/-6572293>.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son <https://lex.uz/docs/-2382409>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2018 yildagi PF-5495-son <https://lex.uz/docs/-3845273>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.04.2015 yildagi PF-4720-son <https://lex.uz/docs/-2635197>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 19-martdagi PQ-1727-son qarori <https://lex.uz/docs/-2013889>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son <https://lex.uz/docs/-4746047>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 04.04.2007 yildagi PQ-615-son <https://lex.uz/docs/-1166091?ONDATE=04.04.2007>.
10. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>.
11. Piter Rouz. Bankovskiy menedjment. M.: INFRA-M, 1995. 294 b.
12. Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. Bankovskoye delo. Organizatsiya deyatelnosti kommercheskogo banka. M.: Vyssheye obrazovaniye, 2008. 422 b.
13. Lavrushin O.I. Osnovy bankovskogo menedjmenta. M.: Finansy i statistika, 1998. 612 b.
14. Nosirov E. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari rolini oshirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2006. 24 b.
15. Yuldashev F.M. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini faollashtirish masalasi: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2006. 23 b.
16. Alimov I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. Toshkent, 2006. 216 b.
17. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti NSBU №21. Toshkent: "NORMA", 2022. 42 b.
18. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 29-30-son, 278-modda.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100